

**Do`stlik tuman axborot-kutubxona markazi
axborot-bibliografiya xizmati**



**Usmon Nosir (1912–1944) — xx asr o‘zbek
she’riyatiga chaqmoqdek kirib kelgan va
yashindek qisqa ijodiy umr kechirgan shoir.**

**“Usmon Nosirning haqiqat qalami” nomli
kitobxonlarga eslatma.**

Usmon Nosir



Kirish

Usmon Nosir tug'ma she'riy iste'dod sohibi edi. Shu o'rinda O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning shoirning tug'ma iste'dodi va ijodi haqida obrazli tarzda bildirgan quyidagi fikrini eslash o'rinlidir: "Usmon Nosir deganda biz kimni tushunamiz. U shunday iste'dod egasiki, bamisoli tekkan joyini kuydirguv- chi olovdur. Shoirning g'oyat qisqa umriga nazar solgan kishi juda uzoq o'ylarga tolishi shubhasizdir. Chunki, bu chaqmoqdek umrda benihoya katta imkoniyatlar yonib ketganligini ko'rib va his qilib turasiz. Usmon Nosir ulug' va she'riyatning diydasi dan oqib ulgurmagan shabnamdir, u hali qahqahaga aylanmay labla- rimizda manguga qotib qolgan nim tabassumdur. Uning she'rlari ko'z kabi tirik, jonli, tutqich bermas hayot poralaridir". Darha- qiqat, Usmon Nosir shoir e'tirof etganidek, "kuydirguvchi olov", "chaqmoq umr", "she'riyat diydasi dan oqib ulgurmagan shab- nam", "qahqahaga aylanmagan nim tabassum", "tutqich bermas hayot poralaridir". Bu obrazli ta'riflar otashqalb Usmon Nosimning qisqa, ammo go'zal she'riyati va iste'dodiga berilgan eng chiroyli tashbehlardir.

Bolaligi



**Усмон
НОСИР**
(1912 – 1944)

Усмон Носир 1912 йил 13 ноябрда Наманган вилоyatida туркистон Миллатлари Кинематография институтининг сўрақой факультетида (1929–30) ва Ленинград Илмий жамияти Самарқанд филиал университетининг тил ва адабиёт факультетида бир мунча ўқиди. 1933–34) „Ўзинг билан кўриб“, „Сарғабди хотира“ (1932), „Тристоробил“ (1934), „Юрак“ (1935), „Мадрид“ (1936) каби кичик сўрақойлар, „Тарбўла“ ва „Илҳом“ (1934) достонлари ишар этилган. „Алмас“ (1935) эмаски ўз вақтида давлат мунча театри сарғабди ўқибчи А. С. Пушковнинг „Берлинский фронт“ ва М. Ю. Лермонтовнинг „Драма“ („Милан“) достонларини ўқиб ишар этилган. 1937 йил 13 июлда „Милан“ сўрақойларига қўйилган, достончи Мотилан, сўрақой Кинематография институтининг даврадорлари тобораки ва 1944 йил 9 мартда йил охири вафот этган.

Usmon Nosir 1912-yilning 13-noyabrida Namanganda, “Chuqurko'cha” dahasida kosib mulla Mamatxo'ja Muhammadxo'ja oilasida tug'ilgan. U tug'ilishi bilan to'shakda og'ir yotgan otasi vafot etadi. Otalik mehrini to'rt yoshga to'lganida Usmon Mamasodiq o'g'li Nosirhoji xonadonida ilk bor totishga muyassar bo'ladi. 1916-yilning oxirlari 1917-yil boshlarida O'gay ota (Nosirxo'ja Mamasodiqov — Namangan paxta zavodining ishchisi) Usmonni va uning onasi Xolambibini Qo'qonga olib ketadi. Qo'qonda Xolambibi yana uch farzand ko'radi. Bular: Ravzaxon, Rohatxon, Inobatxon. Usmon Nosir singillarini juda yaxshi ko'rgan. Shuning uchun, shoir 1934-yilda “Senga, singlimga” Ravzaxonga bag'ishlab uch bandli she'r yozgan. Quyida shu she'rdan parcha:

*Ko'chalarda quyosh bayram etar,
Yel orkestr o 'ynaydi xursand.
Bilasanmi, bu to'p qayga ketar?
Qolma! Orqasidan yugur san!
Qolma! Osrnon ko'in -ko'k bayroq kabi
Bosh ustingda yoyilgan hainon.
Tutqich bermay xuddi simob kabi
Olg'a qarab tashlanar har on.*

Xolambibi mahallada “otincha” nomi bilan mashhur bo'lgan. Usmon Nosir ijodini jiddiy o'rgangan O'tkir Rashidning ma'lumot berishicha, “Onasi Xolambibi ham ilmli, savodli ayol bo'lgani uchun Usmonning tarbiyasiga katta ahamiyat bilan qarab, o'g'liga kitoblar o'qib berar, ertaklar aytib uni zavqlantirardi. Shunga o'rgangan Usmon keyinchalik ham doim onasini ertak aytishga va kitob o'qib berishga majbur qilar edi. Usmonning adabiyotga havas qo'yishida, awalo, onasi sababchi bo'lgan”. Yosh Usmon ana shunday xonadonda o'sib-ulg'ayadi. Usmon Nosir bolaligida mohir futbolchi bo'lgan. U mahalla bolalarini yig'ib, komanda tuzadi. Usmonjon bir tomondan jiddiy hayotiy saboq olib, oq-qorani tanib, qayg'u va shodlikni tanib, baxtsizlik va baxtning qariyib barcha ranglarini ko'rib, ikkinchi tomondan, o'z irodasi, bilimi, intilishlari bilan nimani egallashi mumkin bo'lsa, shu narsani zabt etib ulg'aydi. 1929-yilda to'qqiz yillik maktabning birinchi bitiruvchilar sifatida ikkinchi bosqich o'zbek maktabini tugatadi. Usmon 1929-yilda maktab bitiruvchilari bilan Leningradga ekskursiyaga boradi, u yerdan olam-olam taassurotlar bilan qaytib keladi. U Qo'qonda ochilgan

pedkursda o'qituvchi va ilmiy mudir bo`lib ishlaydi. 1930-yilda Usmon Temur Fattoh bilan Moskvaga borib kinematografiya institutining ssenariy fakultetiga kirib o'qidi. Lekin u yerda kasal bo`lib Qo'qonga qaytadi va yana o'qituvchilik qiladi.

Ta'limi



Yosh Usmon ana shunday xonadonda o'sib-ulg'ayadi, so'ngra "Dorulshafaqa" deb atalgan Qo'qondagi 3-internatda ta'lim oladi. Bu maktabdan Abdulla Qahhor, Sobir Abdulla, Javdat Abdulla, Hasan Po'lat kabi shoir va adiblar yetishib chiqqan. Bu shoirlarning yetishib chiqishida maktab devoriy gazetasi asosiy rol o'ynagan. Usmon Nosir davrida bu devoriy gazeta "Bizning ko'zgu" deb atalgan. Ular orasida Usmonjonning ilk she'rlaridan biri "Haqiqat qalami" bosilib chiqqan. Bu she'r Muxtorxon domla tashabbusi bilan "Bizning ko'zgu"ning 1-sonida, so'ngra "Yangi yo'l jurnalining 8-sonida bosilib chiqqan. Quyida o'sha she'r:

**Qo'llarda tinmay o'ynar
Haqiqatchi qalaming.**

**Umid kuyini tinglar,
Qalbingda yo ‘q alaming.
Haqiqatni yozasan,
Borliqni sen kezasan,
Zolim ko ‘nglin uzasan,
Erkin yo ‘llar chizasan.**

Usmon Nosir Internatni bitirgach 1931-yildan Samarqanddagi O‘zbekiston davlat universiteti (O‘zDU) ning filologiya fakultetida o‘qidi.

Qatag‘on

Usmon Nosir 1937-yil 13-iyulda shoir „xalq dushmani“ sifatida hibsga olinib, 58-modda bilan sudlanadi va avval Zlatoust qamoqxonasiga, so‘ngra Vladivostok va Magadan lagerlariga joylashtiriladi. 1943-yilda Kemerovo viloyatining Mariinskiy tumanidagi lagerga yuboriladi. 1940-yil 20-avgustda Usmon Nosir Magadan qamoqxonasidan Iosif Stalin nomiga ariza yuboradi va unda u uning „ishini“ qayta ko‘rib chiqishni so‘raydi. Bu ariza Iosif Stalin, Lavrentiy Beriya tomonidan ko‘rib chiqildi va ular tomonidan ma‘qullandi. O‘zbekiston rahbari Nosirov Usmon „ishini“ qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risida buyruq oladi. 1944-yil oxiriga kelib komissiya tuzilib, Usmon Nosir begunoh deb topiladi va reabilitatsiya qilinadi.

Vafoti

Ammo shoir reabilitatsiya qilingunga qadar yashamadi. U 1944-yil 9-martda vafot etadi va 15-martda Kemerovo viloyatida yashovchi A. M. Sirota tomonidan Suslovo qishlog‘i (hozirgi Pervomayskoye qishlog‘i) qabristoniga dafn qilinadi. Har yili Kemerovo viloyatining Kemerovo shahrida shoir

xotirasiga bag'ishlangan adabiy o'qishlar bo'lib o'tadi. U yerda Usmon Nosirning uy-muzeyi mavjud bo'lib, unda shoirning she'rlari o'qiladi. Yana u yerda Usmon Nosirga haykal ham o'rnatilgan.

2003-yilda atoqli o'zbek shoiri va dramaturgi Usmon Nosir tavalludining 90 yilligi, 2022-yilda esa 110 yilligi O'zbekistonda keng nishonlandi.

Ijodi

Bu she'r birinchi marta Qo'qonda yashovchi xotin-qiz mux- biralarning slyotida o'qilgan. "Usmon" imzosi bilan muhrlangan ushbu she'r "Yangi yo'l" jurnalida Davron she'ri bilan yonma-yon tarzda e'lon etilgan. Usmon Nosir ijodining ilk tadqiqotchilardan biri Abubakir Rajabiydir. U zamondoshlarining xotiralanga tayanib, "Bizning ko'zgu" gazetasi va jurnalida yosh shoirning "Paxtakor", "Keng yoTda", "Komsomol xati", "1-may", "Ba- hor" kabi ilk she'riy asarlari bosilgani haqida ma'lumot beradi. Bu maktabda bir vaqtning o'zida ikki iste'dodli o'smirlar Usmon Nosir va Amin Umariy tahsil olgan. Usmonjon dastlabki she'riy mashqlariga "Usmon" deb imzo qo'ydi. Madamin Umarov esa (Amin Umariy) ismi-sharifi adabiy taomilga ko'ra, shoirona islohnii taqozo etgani sabab, ustoz Muxtorxon domla ularning binga "Usmon Nosiriy", ikkinchisiga "Amin Umariy" degan shoirona taxallusni hadya etdi. Ular ana shu taxallus bilan muxlislari o'rtasida nom chiqara boshladi.

Usmon Nosir Yangi o'zbek she'riyatida "Yurak", "Yuksal, oppog'im!", "Monolog", "Gulzor — chaman. Yur, bog'larga", "Tiflis oqshomi", "Yana she'rimga", "Yo'lchi", "Yodimdadir uzoq shimol", "Yur, tog'larga chiqaylik",

"Y... .." "N... .." "D... .."

o'nlab badiiy durdona she'riyati bilan o'zbek adabiyoti tarixi sahifalariga zarhal harflar bilan yozilib qoldi.

Usmon Nosir bor-yo'g'i 32 yil umr ko'rib, o'zidan she'rlar, doston- lar, dramalar, adabiy-publitsistik maqolalar, tarjimalar qoldirdi.

Bolaligidan she'rlar yoza boshlagan Usmon Nosir badiiy ijod bilan bor yo'g'i o'n besh yilgina, ya'ni qamoqqa olinguncha astoydil shug'ullandi. Shu fursatda o'zining qanchalik nodir iste'dodga ega ekanligini yaqqol ko'rsatdi. Yosh shoirning „Quyosh bilan suhbat“ (1932), „Safarbar satrlar“ (1932), „Traktorobod“ (1934),



„Yurak“ (1935), „Mehrim“ (1935) kabi she'riy to'plamlari hamda „Norbo'ta“ (1932) va „Naxshon“ (1935) kabi dostonlari va „Atlas“, „Zafar“, „So'nggi kun“, „Dushman“ kabi dramalari bosildi.

Usmon Nosir o'zbek she'riyatiga yangi ohang, yangi ruh, yangi obrazlar olib kirdi. U she'rlarida alangali tuyg'ularini jilovlamas, dilida kechayotgan tug'yonlarni susaytirmas, inson ruhiy dunyosini po'rtanalar ichida ko'rsatardi. Shoirning:

**O‘zi o‘lsa o‘lar,
So‘zi o‘lmaydi,
Hamisha barhayot nasl- shoirlar.
Haqiqiy shoirning qabri bo‘lmaydi-
Yurakka ko‘milar asl shoirlar...**



singari misralari bunga misoldir. O‘zbek she‘riyatida tuyg‘ularni bor bo‘yicha, dolg‘ali ko‘rsatish an‘anasi yo‘q edi. Milliy she‘riyatimiz odob, andisha qoliplaridan chetga chiqmaslikka urinardi. Usmon Nosir ana shu qoliplarni buzishga jur‘at qilgan birinchi shoir bo‘ldi. Shoirning o‘z tuyg‘ularini:

Sevgi! Sening shirin tilingdan
Kim o‘pmagan, kim tishlamagan?
Darding yoyday tilib ko‘ksidan,
Kim qalbidan qonlar to‘kmagan?

tarzida tasvirlashi miqyosi, ko‘lami va ta’sirchanligiga ko‘ra mislsiz poetik hodisa edi. Shoirning: „Ilhomimning vaqti yo‘q selday keladi, Jalloddek rahm etmay dilni tiladi, Ayondir bir kuni aylaydi xarob“ shaklidagi iqrori, ayni vaqtda, ulkan badiiy kashfiyot hamdir.

Usmon Nosir she‘riyatiga xos eng rangin xususiyatlar uning „Yurak“, „Nil va Rim“, „Monolog“, „Nasimaga deganim“, „Yana she‘rimga“, „Begona“, „Yoshlik“ singari o‘nlab bitiklarida yorqin namoyon bo‘lgan.

Tarjimalari



30-yillar adabiy hayotida ro‘y bergan va aksar o‘zbek yozuv- chilari ijodida chuqur iz qoldirgan voqea A.S. Pushkin asarlarining o‘zbek tiliga tarjima etilishi bo‘ldi. Rus shoiri vafotining 1937-yilda nishonlanajak 100 yilligi munosabati bilan O‘zbekistonda keng ko‘lamli tarjima ishlari amalga oshirildi. Usmon Nosir Pushkinning “Boqchasaroy fontani” asarini nihoyatda katta iste’dod va mahorat bilan o‘zbekchalashtirdi. Shoir o‘zining betakror badiiy tarjima mahoratini namoyon etib, Pushkinning poemasidan tashqari, N.A. Dobrolyubovning “Haqiqiy kun qachon keladi?”, V.I. Kirshonning “Ulug‘ kun” dramasini, M.Y. Lermontovning “Demon” dostoni va bir qancha she‘rlarini, Geyne, Gyote, Bayron ijodidan ba’zi bir she‘riy namunalarni o‘zbek tiliga o‘girdi. Bu badiiy tarjimalar o‘zbek adabiyotining tarjimachilik sohasida shoh asarlar sifatida tarixga muhrlandi.

Nomini abadiylashtirish



Rossiya Federatsiyasi Kemerovo viloyatining Mariinsk shahrida Usmon Nosirga haykal o‘rnatilgan;

Manbalar

1. „Kemerovoda Usmon Nosir haykali ochildi“ (2023-yil 5-sentyabr). 2023-yil 5-sentyabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2023-yil 5-sentyabr.
2. Mirvaliev S. O‘zbek adiblari. -T.: „Yozuvchi“, 2000.
3. Q. Yo‘ldoshev, B. Qosimov. Adabiyot (7-sinf darsligi). - T.: „O‘qituvchi“. 2000.
4. „Kemerovoda Usmon Nosir haykali ochildi“. *Xs.uz* (5-sentyabr 2023-yil). 2023-yil 8-sentyabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 8-sentyabr 2023-yil.
5. Usmon Nosir[Matn]:nazm/to‘plovchilar: Naim Karimov? Marhabo Qo‘chqorova. –Toshkent:”O‘zbekiston nashriyoti”,2022.-280 b.
6. Усмон Носир ҳақида хотиралар/Н. Рашидова.-Т.: F.Ғулom номидаги Адабиёт ва санъат нашр.,2001.-64 б.

Mundarija

- Kirish
- Bolaligi
- Ta`lim
- Qatag`on
- Vafoti
- Ijodi
- Nomini abadiylashtirish
- Manbalar
- Tarjimalari

Tayyorladi Axborot bibliografiya xizmati rahbari M.A.Raximova.

